

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasining horijdagi konsullik muassasalarida konsullik hisobida turgan fuqarolardan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo‘yicha hujjatlar qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo‘yicha ariza va hujjat topshirish uchun arizachi O‘zbekiston Respublikasining horijdagi konsullik muassasasiga shahsan murojaat etishi talab etiladi. Shu bilan birga, quyidagi hujjatlarni ilova etadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomiga ariza;
- o‘rnatilgan tartib bo‘yicha anketa-ariza;
- avtobiografiya va yaqin qarindoshlari haqida ma‘lumot;
- arizachining tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohtonmasi;
- 4 ta surat (35-45mm);
- fuqarolik pasportining barcha varaqlaridan nusxa;
- boshqa davlat fuqaroligini qabul qilganligini tasdiqlovchi yoki vakolat beruvchi hujjat, rasmiy tarjima bilan;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish uchun hujjat rasmiylashtirayotgan arizachi voyaga etmagan farzandi bilan (18 yoshgacha) hujjat topshirayotgan bo‘lsa, bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi va arizachining turmush qurganligi to‘g‘risidagi guvohtonmalarining asli va nusxalarini taqdim etishi lozim;

- otalari yoki onalari bilan birga fuqarolikdan chiqayotgan 14 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan farzandlar o‘zlarining O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish bo‘yicha rozilik arizalarini taqdim etadilar;

- agar ota-ona ikkalasi ham O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lib, faqat bittasi voyaga etmagan farzandi bilan O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqayotgan bo‘lsa, boshqasini bolaning va turmush o‘rtog‘ining O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqishiga bo‘lgan munosabati arizasida ko‘rsatilishi lozim;

- ba‘zi hollarda nikohdan ajralganlik to‘g‘risidagi, o‘lim to‘g‘risidagi guvohtonmalar, bolalikka olish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish to‘g‘risidagi ma‘lumotnomalarning notarius tomonidan tasdiqlangan nusxalari talab qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligidan chiqish to‘g‘risidagi ariza 1 yil ko‘rib chiqiladi. Ko‘rib chiqish va arizaga asosan hujjatlarni rasmiylashtirish uchun konsullik to‘lov sifatida 100 AQSH dollari+ma‘muriy to‘lov to‘lanadi.